


**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi**

**60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi
ta’lim yo‘nalishining malaka talablari**

Toshkent – 2022



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN

- Toshkent farmatsevtika instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil «25» 10 dagi 6 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil «25» 11 dagi 38 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lijni saqlash vazirligi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)</i> ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi	4
1.1.2.	Malaka talablarning asosiy foydalanuviları	4
1.2.	<i>60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining tavsifi.....	4
1.2.1	<i>60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining ob’ektlari.....	5
1.2.3.	<i>60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining turlari	5
1.2.4.	<i>60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	8
	Bibliografik ma’lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i.....	10

1. 60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi

60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklda amalga oshiriladi. Ta’lim shakli o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavrit dasturining me’yoriy mudati 5 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanishi

Malaka talabi **60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha tibbiyat va farmatsevtika oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas’ul, hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgalik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavr bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari Davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining tasnifi

1.2.1. 60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

60910700 – Farmatsiya (turlari bo‘yicha) – “Sog‘liqni saqlash” – ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u kasbiy faoliyatini aholiga farmatsevtik yordamni ko‘rsatish, iste’molchilarining farmatsevtika tashkilotida sotishga ruxsat berilgan xavfsiz, samarali, yuqori sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar, asbob-uskunalar va boshqa farmatsevtika mahsulotlariga bulgan ehtiyojini aniqlash va talabini qondirish; farmatsevtika tashkiloti faoliyatini tashkil etish va boshqarish; farmatsevtika tashkilotining mehnat jamoasi ishini tashkil etish va uni boshqarish; dorixonalar va dorixona shaxobchalarida dori vositalari va tibbiy buyumlarining chakana savdosi; dori vositalari va tibbiy buyumlarining ulgurji savdosi; omborxonalarda dori vositalari va tibbiy buyumlarni me’yoriy hujjatlar asosida saqlashni tashkil etish; dorixona faoliyatida buxgalteriya va statistika hisob va hisobotlarni olib borish; dorixona faoliyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatikichlarini tahlil qilish va rejalashtirish; dorixona sharoitida dori vositalari va boshqa turdagи tibbiy va farmatsevtika mahsulotlarini tayyorlash; tibbiy va farmatsevtika mahsulotlarini qadoqlash va o‘rash; muayyan guruh dori vositalari va boshqa moddalarni miqdoriy-buyum hisobini yuritish; dorixonalar sharoitida dori preparatlarini ishlab chiqish; dori vositalari va dorixona assortimentining boshqa mahsulotlarini qadoqlash, o‘rash va saqlashnishini ta’minalash; zaharli, giyohvand, psixotrop va kuchli ta’sir etuvchi moddalarni va

ularning metabolitlarini murda ichki a'zolaridan va biologik suyuqliklardan ajratib olish; biologik ob'ekt va biologik suyuqliklardan ajratib olingan narkotik, psixotrop dori vositalari va boshqa inson organizmiga ta'sir etuvchi zaharli moddalarни sifat va miqdorini aniqlash; farmatsevtik preparatlar, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va boshqa moddalarни sifat va miqdorini aniqlash; olingan tekshiruvlar interpretatsiyani o'tkazish; dori vositalarining sifatini biologik usullar bilan nazorat qilish; dori vositalarining klinikagacha bo'lgan farmakotoxikologik tadqiqotlarini o'tkazish; samarali va xavfsiz farmakoterapiyani tashkil etish; dori vositalarining klinik tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish; kuchli ta'sir etuvchi, psixotrop, narkotik dori moddalar aylanishini nazorat qilishga tegishli kompleks masalalarni echishni o'z ichiga oladi.

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilar talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat sohalariда qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 60910700 – Farmatsiya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'naliши bo'yicha bakalavrлarning kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- dori vositalari, davolash-profilaktika muassasalari, turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar farmatsevtika ishini tashkil etish va yuritish;
- nazorat tahlil va kimyo-toksikologik laboratoriyalari, farmatsevtikaga oid ilmiy-amaliy loyihalar, klinik-farmakologik tahlil va klinik eksperimental laboratoriyalari hisoblanadi.

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilar talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.3. 60910700 – Farmatsiya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'naliши bo'yicha bakalavrлarning kasbiy faoliyatining turlari

- ilmiy-tadqiqot;
- ishlab chiqarish;
- tashkiliy-boshqaruv;
- foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish;
- pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida).

Yo'naliш bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilar talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ta'lim yo'naliши bo'yicha tayyorlangan bakalavrлarning kasbiy faoliyatining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilar bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 60910700 – Farmatsiya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'naliши bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari:

60910700 – Farmatsiya (turlari bo'yicha) yo'naliши bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- turli dori turlarini tayyorlash jarayonini va moddiy texnik ta'minotini tashkil qilish;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- dorixonalarda assistent, texnolog, nazoratchi bo'lib ishlash;
- sud-kimyo bo'limlarida kimyogar ekspert bo'lib ishlash;
- ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- xomashyo, yordamchi materiallar va mahsulotlarning sifatini nazorat qilish;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha texnologik echimlarni ishlab chiqish;
- namunaviy texnologik jarayonlarni qo‘llash;
- amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlanТИRISH va ulardan foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish;
- ishlab chiqarish korxonalarida dori vositalari sifatini ta’minalash va boshqarish (sifat menejmenti);
- dori vositalarini tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish jarayonlarida standartlash va sertifikatlashtirish;
- yangi tahlil usullarini validatsiyalash, ularni sinovdan o‘tkazishda zarur bo‘lgan tashkiliy ishlarda ishtirot etish;
 - namunaviy sifat tizimini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash;
 - amaldagi nazorat-tahlil asbob-uskunalarini yaroqli holatda ushlab turish va ta’minalash;
 - kimyo-toksikologik tahlillarni olib borish;
 - dori vositalari sifatini biologik standartlash va sertifikatlash;
 - yangi dori turlarini yaratilishida klinik farmatsevtik tamoyillarni qo‘llay bilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- farmatsevtika tashkilotlari resurslarini samarali boshqaruvini tashkil qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
 - ishlab chiqarish jarayoni sifatini boshqarish tizimini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
 - axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
 - atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
 - kasbga oid muammolar echimlarini amaliyotga tadbiq etish;
 - ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
 - ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
 - fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
 - bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
 - ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;
 - dori vositalarini ishlab chiqarishda sifatni boshqarish jarayonlarini tadbiq qilish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- dori vositalari texnologiyasi, standartlashtirish va sertifikatlashga oid ilmiy tekshirishlar bo‘yicha namunaviy usullarda ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;
- Respublika va xorijda chop etilgan farmatsevtikaga oid ilmiy-texnik axborotning ilmiy manbalarini o‘rganish; ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarishda bevosita ishtirot etish;
- mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirot etish;
- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish;
- Internet tarmog‘ida sohaga tegishli eng yangi ilmiy, texnologik yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘naltirilgan holda qidirish va topish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorlanganlik profiliga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini echish;
 - dori vositalarini yaratish va ularning tahlil usullarini ishlab chiqish, tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish jarayonlari, standartlash, yangi tahlil usullarining validatsiya jarayonini uslubiy ishlab chiqishda ishtirot etish;

- kimyo-toksikologik tekshiruvlarda ob'ektlardan ajratib olish usullarini takomillashtirish, ularning kimyoviy va fizikaviy xossalardan kelib chiqqan holda tahlil qilish;
- yangi dori vositalarining farmakodinamikasi, farmakokinetikasi, bezararligrini tajribalarda ýrganish;
- tajribalarda olingen natijalar asosida ilmiy xulosalar chiqara olish;
- yangi dori vositalarini klinik sinovlarini o'tkazish va tibbiyat amaliyotiga tatbiq etish.

Foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish faoliyatida:

- aholi va davolash-profilaktika muassasalarini dori vositalari va tibbiyat buyumlari bilan ta'minlashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, mazkur jarayonni zarur uskunalar va jihozlar bilan ta'minlash, jarayonni takomillashtirish;

– farmatsevtika ta'minoti jarayonining matematik, axborot va imitatcion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;

– dori vositalari, tibbiy texnika sifatini nazorat qilish usullarini ishlab chiqish, takomillashtirish va rasmiylashtirish;

– ish o'rinalarini attestatsiyadan o'tkazish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.

Pedagogik faoliyatida (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida):

- umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha fanlardan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

– o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

– o'qitilayotgan fanlar bo'yicha dars mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tadbiq etish;

– mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

2. 60910700 – Farmatsiya (turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

– ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muammo va jarayonlarni tahlil qilish, turli kasbiy va ijtimoiy faoliyatida gumanitar, tabiiy-ilmiy, tibbiy-biologik va farmatsevtika fanlari usullarini amaliyotda qo'llash qobiliyati va tayyorligi;

– dunyo qarashga oid, ijtimoiy va shaxsga qaratilgan falsafaga oid muammolarni, asosiy falsafa toifalarini tahlil qilish, o'zini takomillashtirish qobiliyati va tayyorligi;

– muhim siyosiy voqealar va tendensiyalarni tahlil qilish, siyosiy hayotda ma'suliyat bilan ishtirok etish, asosiy tushunchalar, jahon tarixiy jarayonning qonuniyatlarini bilish. Milliy mustaqillik g'oyalarini tushinish va targ'ibot qilish, o'z mamlakatiga vatanparvarlik hissini uyg'otish; tarixiy obidalar va an'analarga hurmat va ehtirom qilish, davlat siyosatini baholash qobiliyati va tayyorligi;

– mamlakatning eng yangi tarixini va tarixiy-tibbiy atamalarni bilish qobiliyati va tayyorligi;

– o'z-o'zini rivojlantirishga, o'zini anglashga, o'z-o'zini tarbiyalashga, foydalanishga tayyorlik, ijodkorlikka egaligi;

– jamoada ishslashga tayyorlik, ijtimoiy bag'rikenglik etnik, konfessional va madaniy farqlarga tayyorligi;

– axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot, bibliografik resurslar, tibbiy-biologik va farmatsevtik terminologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy faoliyatning standart vazifalarini hal qilishga tayyorlik;

– iqtisodiyotning rivojlanish darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni umumlashtiradigan bozor xo'jalik yuritish mexanizmlarini bilish qobiliyati va tayyorligi;

- mantiqiy va asoslangan tahlil qilish, ommada nutq so‘zlash, muloqot va suhbat olib borish, kasbiy mazmundagi matnlarni tahrirlash, hamkorlik qilish va nizolarni echish, bag‘rikenglik qilish qobiliyati va tayyorligi;
- hayotda so‘zlash darajasida chet el tillaridan birini bilish, davlat tilida yozma va og‘zaki kommunikatsiya qilish qobiliyati va tayyorligi;
- o‘z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma’naviy va huquqiy me’yorlarni hisobga olgan holda amalga oshirish, shifokorlar etikasi, maxfiy axborot bilan ishlash bo‘yicha qonun va huquqiy-me’yoriy hujjatlarga amal qilish, shifokorlar sirini saqlash qobiliyati va tayyorligi;
- favqulotda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish texnikasi va himoya usullaridan foydalanishga tayyorlik;
- asosiy fizik, kimyoviy, matematik va boshqalardan foydalanishga tayyorlik kasbiy muammolarni hal qilishda boshqa tabiiy fanlar konsepsiyalari va usullarini bilish;
- dorilarni va boshqalarni tibbiy ishlatishga tayyorligi kasbiy muammolarni hal qilishda moddalar va ularning kombinatsiyadan foydalana olish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- turli mulkchilik shaklidagi dorixonalarda farmatsevt-texnolog, farmatsevt-analitik va farmatsevt-nazoratchi ishini tashkillashtirish;
- farmatsevtika tashkilotining mehnat jamoasi ishini tashkil etish va uni boshkarish;
- farmatsevtika tashkilotining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- farmatsevtika tashkilotining moddiy va resurs bilan ta’minalashni tashkil etish;
- farmatsevtika savdo korxonalari va omborxonalarida dori vositalarini qabul qilish, saqlash, qadoqlash va tarqatish;
- aholiga farmatsevtika yordamini tashkillashtirish;
- aholi, tibbiyot va farmatsevtika xodimlariga axborot va maslaxat yordamini tashkillashtirish;
- aholi va tibbiyot xodimlariga dorilarning farmakologik xususiyatlari bo‘yicha ma’lumot berish;
- aholi orasida tarqalgan kasallikkarni va uni davolash uchun kerak bo‘ladigan dorilar guruhiba ehtiyojni o‘rganish va ta’minalashga yo‘naltirilgan vositalar, usullar va uslublarni qo‘llash;
- farmatsevtika tashkilotining faoliyatidagi joriy natijalar sifatini tashkil etish va boshqarish;
- dorixonalar sharoitida dori preparatlarini tayyorlash;
- shifoxona dorixonalarida dori vositalarini tayyorlash, sifatini baholash, saqlash, qadoqlash va bemorlarga berish;
- sud-tibbiy ekspertizasi (sud-kimyo, kimyo-toksikologik) faoliyatini tashkil etish;
- sud-tibbiy ekspertizasida ashyoviy dalillar va biologik ob’ektlarni sud-kimyo va kimyo-toksikologik tahlillarini o‘tkazish;
- sud-kimyo va kimyo-toksikologik tekshiruv sifatini nazorat qilishni tashkil etish;
- dori vositalarini tahlil qilish;
- dori vositalarini sifatini baholash;
- dori vositalari sifatini ta’minalash;
- dori vositalarining sifatini nazorat qilish;
- tahlil usullarini validatsiyalash;
- dori vositalarini sertifikatlashtirish;
- dori vositalarini standartlashtirish;
- yangi dori vositalarining klinika oldi tekshiruvlari, klinik sinovlarini o‘tkazish.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Farmatsiya, farmatsevtika iqtisodiyoti, farmatsevtika ishini tashkil etish, farmatsevtika boshqaruvi, farmatsevtik kimyo, dori vositalarini standartlashtirish, lotin tili va farmatsevtik terminologiya, tayyor dori turlari texnologiyasi, farmatsevtik texnologiya, biologik kimyo, tibbiyot va farmatsevtika tovarshunosligi, vaqtinchalik farmakopeya maqolasi, farmakopeya maqolasi, tarmoqlar standarti (OST), texnik shartlar (TSH), Davlat standartlari, GxP – GLP, GCP, GMP, GSP, GDP, GPP va validatsiya.

Ишлаб чиқувчилар, келишилган асосий кадрлар истеъмолчилари

ИШЛАБ ЧИҚИЛДИ:

Тошкент фармацевтика институти

Ректор
2022 йил «

К.С.Ризаев



М.Ү.

КЕЛИШИЛДИ:

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
максус таълим вазирлиги хузуридаги
Олий таълим министри ривожлантириш
тадқиқотлари ва илғор технологияларни
тадбик этиш маркази

Директор
Ш.У.Якубов

2022 йил «

М.Ү.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни
сақлаш вазирлиги хузуридаги Республика
тиббий таълимни ривожлантириш
маркази

Директор
Д.С.Тўхтасинова

2022 йил «

М.Ү.

Ўзбекистон Республикаси
Соғлиқни сақлаш вазирлиги
Фан ва тиббий таълим
Бони бошқармаси

Бошлик
У.С.Исмайлов

2022 йил «

М.Ү.

С.А.Султонов номидаги Ўзбеки-
стон кимё-фармацевтика илмий
тадқиқот институти

Директор
А.А.Туляганов

2022 йил «

М.Ү.

МЧЖ “Дори воситаларини стандартлаш
илмий маркази” директори

Директор
М.М.Хамдамов

2022 йил «

М.Ү.